



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Umarova Iroda Sadriddinovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0000-0002-2154-6822

iroda_83@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlash tizimining amaldagi holati tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba va empirik izlanishlar asosida kichik biznesni moliyalashtirishda uchraydigan asosiy cheklovlar aniqlanib, kredit axborot infratuzilmasini rivojlantirish, garovsiz kreditlash mexanizmlari, raqamli moliyalashtirish vositalari va davlat kafolatlarini kuchaytirishga doir strategik takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes, kreditlash tizimi, moliyaviy inklyuziya, garov siyosati, raqamli moliyalashtirish.

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ КРЕДИТОВАНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ

Умарова Ирода Садриддиновна

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проводится анализ текущего состояния системы кредитования субъектов малого и среднего бизнеса в Узбекистане. На основе международного опыта и эмпирических исследований выявлены основные ограничения в финансировании малого бизнеса. В работе предлагаются стратегические меры по развитию кредитной информационной инфраструктуры, внедрению механизмов беззалогового кредитования, цифровых финансовых инструментов и усилению государственных гарантий.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, система кредитования, финансовая инклюзия, залоговая политика, цифровое финансирование.

DIRECTIONS FOR IMPROVING SMALL BUSINESS LENDING MECHANISMS IN UZBEKISTAN

Umarova Iroda Sadriddinovna

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the current state of the credit system for small and medium-sized enterprises (SMEs) in Uzbekistan. Based on international experience and empirical research, the main constraints in SME financing are identified. The paper proposes strategic measures aimed at developing credit information infrastructure, introducing collateral-free lending mechanisms, promoting digital financing tools, and strengthening public guarantee schemes.

Keywords: small and medium-sized enterprises, credit system, financial inclusion, collateral policy, digital financing.

Kirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday milliy iqtisodiyotning eng muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Bu sektor nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va hududiy rivojlanishni rag'batlantirish kabi ko'plab ijobiy funksiyalarni bajaradi. Shu bois, jahon tajribasida kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonda ham kichik biznesni rivojlantirish va uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda soliq imtiyozlari, yengillashtirilgan ro'yxatdan o'tish tartib-taomillari, litsenziyalash jarayonlarining soddalashtirilishi va boshqa bir qator institutsional yondashuvlar orqali kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilmoqda. Biroq, mavjud ijobiy o'zgarishlarga qaramay, kichik biznesni moliyalashtirish, xususan, bank krediti shaklida yetarli resurslar bilan ta'minlash masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes subyektlari bank kreditiga murojaat qilgan hollarda ko'plab to'siqlarga duch kelmoqda. Ulardan eng asosiylari garov ta'minoti yetishmasligi, kredit tarixining shakllanmaganligi, yuqori foiz stavkalari, hujjat aylanishi byurokreatiyasi va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligidir. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan kichik biznesni kreditlash strategiyalarining yetarlicha moslashuvchan emasligi, kredit risklarining yuqoriligi sababli ushbu segmentga bo'lgan ishonchning pastligi ham kreditlash hajmining cheklanishiga olib kelmoqda.

Mazkur holat kichik biznes subyektlarining o'sish sur'atlariga, innovatsion faollikka, eksport salohiyatining kengayishiga va umuman mamlakatdagi iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, zamonaviy va muqobil kreditlash mexanizmlarini joriy etish orqali bank-moliya tizimini liberallashtirish, uzoq muddatli va barqaror rivojlanishga erishish yo'lida muhim strategik vazifadir.

Adabiyotlar sharhi.

Kichik va o'rta biznes subyektlari (KO'B) ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu subyektlarning moliyaviy resurslarga, ayniqsa bank kreditlariga kirish imkoniyatlari cheklanganligi ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda KO'B subyektlarini kreditlash tizimini takomillashtirish bo'yicha turli yondashuvlar va tajribalar o'rganilgan.

De la Torre, Martínez Pería va Schmukler (2010) moliyaviy tizimda "duallik" hodisasini ta'riflab, yirik korxonalar moliyaviy xizmatlarga oson kirish imkoniga ega ekanligini, KOB subyektlari esa cheklangan sharoitlarda faoliyat yuritayotganligini asoslab berganlar. Ular samarali kredit axborot tizimlari, kreditorlar huquqini himoya qilish mexanizmlari va institutsional muhit barqarorligi kreditlashni rivojlantirishda muhim omillar ekanligini ta'kidlaydilar.

OECDning 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, pandemiyadan keyingi global moliyaviy sharoitlarda KOB subyektlari uchun an'anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda, raqamli moliyalashtirish platformalari, kriptovalyutalarga asoslangan startaplar va crowd-financing vositalari muhim muqobil resurs manbai sifatida shakllanmoqda. Hisobotda shuningdek, "yashil moliya" va ijtimoiy kafolatli kreditlar modeli KOB subyektlari uchun innovatsion moliyaviy yechim sifatida baholanadi.

Lov va Martínez Pería (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotda davlat tomonidan kafolatlanadigan kredit mexanizmlarining KOB subyektlariga kredit ajratishdagi samaradorligi empirik ma'lumotlar asosida ko'rsatilgan. Ularning fikricha, ushbu mexanizm, ayniqsa garov


ta'minoti yetarli bo'lmagan, lekin iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan bizneslar uchun kredit olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kul va Martínez Pería (2013) mikromoliyalashtirish, mobil bank xizmatlari va notraditsion raqamli platformalarning KO'B subyektlarini moliyalashtirishdagi rolini tahlil qilgan. Ular ushbu vositalarning ayniqsa moliyaviy inklyuziya past bo'lgan mamlakatlarda an'anaviy bank tizimiga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega ekanligini qayd etadilar.

Yevropa investitsiya bankining 2022 yilgi tahliliy hisobotida esa post-pandemiya davrida bank kreditlarini berishda sun'iy intellekt, ochiq bank tizimlari va real vaqtlilik risk monitoringi kabi innovatsion texnologiyalar joriy qilinayotgani qayd etiladi. Ushbu texnologiyalar KOB subyektlari uchun risklarni aniqroq baholash, hujjat aylanishini soddalashtirish va kredit yechimlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda (EIB, 2022).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kichik biznesni kreditlash mexanizmlarining samaradorligini oshirish hozirgi kunda O'zbekistonda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, xususiyl sektorini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda respublikada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, amaliyotda kichik biznes subyektlarining kredit resurslariga to'liq kirish imkoniyati hali ham cheklangan bo'lib qolmoqda. Bu holat banklar tomonidan qo'yiladigan yuqori garov talablari, moliyaviy tahlil vositalarining yetarli darajada qo'llanilmasligi, kredit tarixi bo'yicha axborotlar yetishmasligi va raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasining pastligi bilan izohlanadi.



1-rasm. 2023-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi

Manba: markaziy bank ma'lumotlari.


Hisobot yilida kichik va o'rta tadbirkorlikni, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 573 mingdan ortiq loyihalarga jami 73 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha 2023-yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalari hisobidan hududlarda 16 mingga yaqin loyihalar uchun 3,2 mlrd dollarlik kreditlar ajratilgan, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag'lar hisobidan 2,7 mlrd dollar (jami xorijiy kredit liniyalarining 86 foizi) miqdorida kreditlar yo'naltirildi. Bunda, 1,2 mlrd dollar miqdoridagi mablag'lar kichik va xususiyl tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun ajratildi.

Hisobot yilida sohalar kesimida xorijiy kredit liniyalari mablag'larining yo'naltirilishi qishloq xo'jaligiga hamda xizmat ko'rsatish sohalariga o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, sanoatga 1,5 barobarga, qurilishga 2,7 barobarga, savdo va umumiy ovqatlanish 1,6 barobarga va transport sohasiga 3,3 barobarga oshdi.

Global iqtisodiy noaniqliklar va jahon bozorida asosiy xomashyo mahsulotlari narxlarining keskin tebranishlari sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashga erishish uchun ushbu sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, 2024-yil 1-yanvar holatiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarga jami ajratilgan kreditlar qoldig'i 23,8 trln so'mni tashkil qildi. Ushbu kreditlarning 12,3 trln so'mi issiqxona (52 foiz), 4,2 trln so'mi chorvachilik (18 foiz), 2,4 trln so'mi muzlatgichli omborxona (10 foiz), 2,0 trln so'mi parrandachilik (8 foiz), 1,3 trln so'mi bog'dorchilik (5 foiz), 591 mlrd so'mi baliqchilik (2 foiz), 557 mlrd so'mi sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish (2 foiz) va 372 mlrd so'mi go'sht va sutni qayta ishlash loyihalarini (2 foiz) moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

2023-yilda tijorat banklari tomonidan savdo va xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining qariyb 39 mingdan ortiq loyihalarini moliyalashtirish uchun 53,7 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi. Ushbu mablag'larning 23 trln so'mi xizmatlar sohasidagi loyihalarga, 16,9 trln so'mi savdo faoliyatiga va 13,8 trln so'mi xizmatlar sohasidagi tadbirkorlarning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ajratilgan.

Turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan 3 548 ta tadbirkorlik subyektlariga 3,5 trln so'mdan ortiq kreditlar berildi. Ushbu ajratilgan kreditlarning 1,3 trln so'mi mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish, 896,7 mlrd so'mi restoranlar faoliyati, 449,3 mlrd so'mi yo'lovchi tashish xizmatlariga, 112,8 mlrd so'mi sport va sog'lomlashtirish turizmi hamda 43,1 mlrd so'mi turistik agentlik va oromgohlar faoliyati uchun yo'naltirilgan.



2-rasm. 2023-yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit ajratish dinamikasi

Manba: markaziy bank ma'lumotlari.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish hamda kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida so'nggi 6 yilda jami 44 trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilib, 1,9 mln ga yaqin aholining daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishiga zamin yaratildi. Natijada, respublika bo'yicha o'rta hisobda har ming xonadonning 193 tasi ushbu dasturlar doirasida qo'shimcha daromad olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. 2023-yilda ham dasturlar amalga oshirilishi davom ettirilib, asosiy e'tibor yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga qaratildi va hokim yordamchilari tavsiyalari asosida 472 mingdan ortiq loyihalarga jami 9,9 trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi.

Xulosa va takliflar.

Kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlash tizimini takomillashtirish O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikka erishish yo'lida strategik ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillar va xalqaro tajribalar asosida quyidagi kompleks tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin. Birinchidan, kichik biznesning moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirish uchun kredit axborot infratuzilmasini kuchaytirish zarur. Bu borada barcha moliyaviy institutlar uchun yagona kredit tarixlari bazasini yaratish, kichik korxonalar reytingini baholovchi indekslar va kredit ball tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, garovsiz yoki minimal garov bilan kredit ajratish amaliyotini institutsionallashtirish uchun davlat kafolat fondlari faoliyatini kengaytirish, shuningdek, riskni taqsimlash asosidagi davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, raqamli moliyalashtirish texnologiyalaridan foydalangan holda, kichik biznes subyektlari uchun masofaviy kreditlash, mobil ilovalar orqali ariza topshirish va real vaqtli kredit monitoring tizimlarini ishlab chiqish, byurokratik to'siqlarni kamaytirishga yordam beradi. To'rtinchidan, kichik biznes subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishga qaratilgan tizimli dasturlar, ayniqsa, ayollar va yosh tadbirkorlar uchun maqsadli moliyaviy maslahat xizmati platformalari zarur. Beshinchidan, tijorat banklari uchun kichik va o'rta biznesni kreditlash hajmi bo'yicha rag'batlantiruvchi fiskal mexanizmlarni (masalan, soliq chegirmalari, foiz kompensatsiyasi) ishlab chiqish lozim.

Kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususan, kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini oshirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda, bandlikni kengaytirishda va hududiy tenglikni ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biridir. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes kreditlash tizimining hozirgi modeli yetarli darajada moslashuvchan, inklyuziv va barqaror emas. Amaldagi tizimda garov ta'minotining yuqoriligi, kredit olishdagi byurokratik murakkabliklar, moliyaviy savodxonlikning pastligi, raqamli vositalardan yetarlicha foydalanilmasligi kabi muammolar mavjud bo'lib, ular kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy inklyuziyasini cheklamoqda.

Shu nuqtai nazardan, kreditlash tizimini faqat banklar miqyosida isloh qilish emas, balki davlat siyosatining keng qamrovli, ko'p darajali va institutsional yondashuvlar orqali takomillashtirish muhim. Xalqaro amaliyotlar va empirik tadqiqotlar asosida shuni ishonch bilan aytish mumkinki, samarali kreditlash muhitini yaratish uchun kichik biznesga moslashtirilgan maxsus moliyalashtirish mahsulotlari, davlat kafolat tizimlari, raqamli moliyalashtirish infratuzilmasi va moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini uyg'un holda amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Cull, R., & Martínez Pería, M. S. (2013). Bank ownership and lending patterns during the 2008–2009 financial crisis: Evidence from Latin America and Eastern Europe. *Journal of Banking & Finance*, 37(12), 4861–4878.

De la Torre, A., Martínez Pería, M. S., & Schmukler, S. L. (2010). Bank involvement with SMEs: Beyond relationship lending. *World Bank Policy Research Working Paper*, No. 4649.

European Investment Bank (EIB). (2022). *EIB Investment Report 2021/2022: Key findings*. Luxembourg.

Love, I., & Martínez Pería, M. S. (2015). How Bank Competition Affects Firms' Access to Finance. *World Bank Economic Review*, 29(Supplement_1), S102–S121.

OECD. (2023). *Financing SMEs and Entrepreneurs 2023: An OECD Scoreboard*. Paris: OECD Publishing.

Абдикаримова Д.Р. «Банк кредитлари гаров таъминотини баҳолаш амалиётини такомиллаштириш йўллари» PhD илмий даражаси олиш учун ёзган диссертация автореферати. –Т.: 2018, 61 бет.